## TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

#### TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

#### ABDULLAYEV RUSTAM KAXRAMANOVICH

## HODISA SODIR BOʻLGAN JOYNI KOʻZDAN KECHIRISHNING KRIMINALISTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

## Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Abdullayev Rustam Kaxramanovich	
Hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirishning	
kriminalistik ta'minotini takomillashtirish	3
Абдуллаев Рустам Кахраманович	
Совершенствование криминалистического обеспечения осмотра	
места происшествия	23
Abdullaev Rustam Kahramanovich	
Improvement of forensic support for the inspection of the scene	
of the incident	45
E'lon qilingan ishlar ro'yxati	
Список опубликованных работ	
List of published works	50

## TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

### TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

#### ABDULLAYEV RUSTAM KAXRAMANOVICH

## HODISA SODIR BOʻLGAN JOYNI KOʻZDAN KECHIRISHNING KRIMINALISTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Yu760 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xidoyatov Baxtiyar Batirovich

yuridik fanlar nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: Raxmonova Surayyo Maxmudovna

yuridik fanlar doktori, professor

**Astanov Istam Rustamovich** yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 14-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh koʻchasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36 faks: +99871 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1159-raqam bilan roʻyxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur koʻchasi, 13-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 28-iyul kuni tarqatildi.

(2023-yil 28-iyuldagi 06-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

M.Q. O'razaliev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

N.S. Salayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

#### KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminalistik ta'minotini samaradorligini oshirish eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi¹. Yevrokomissiya tashkilotining soʻnggi statistik ma'lumotlariga koʻra, aksariyat Yevropa davlatlarida jinoyatlarni roʻyxatga olish koʻrsatkichlari oʻzining oʻsish tendensiyalariga ega². Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligiga a'zo davlatlar Bosh prokurorlari Muvofiqlashtiruvchi Kengashining axborot materiallari tahlili shuni koʻrsatdiki, 2020-yilning birinchi choragida MDHga a'zo davlatlar hududida 800 mingga yaqin jinoyatlar qayd etilgan. 2019-yilning birinchi choragiga nisbatan Ozarbayjon, Armaniston va Rossiyada jinoyatchilikning 4-14%, Oʻzbekistonda 70% oʻsishi kuzatilgan. Qayd etilgan jinoyatlar sonining Moldovada 2%, Belorussiyada — 11%, Qozogʻistonda - 24 %³ kamayishi qayd etilgan boʻlib, bu esa samarali tergov mexanizmini yaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Jahonda jinoyatlarni ochish va tergov qilishni kriminalistik ta'minlash tizimini takomillashtirish boʻyicha huquqiy yechimlarni izlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor tobora koʻproq qaratilmoqda va unda hodisa joyidagi vaziyat va holatlarga ob'ektiv qayd etishga qaratilgan hodisa joyini koʻzdan kechirish (bundan buyon matnda — HSBJKK), jinoyat bilan bogʻliq moddiy izlarni aniqlash, qayd etish va olib qoʻyish alohida ahamiyatga ega.

Respublikamiz huquqni muhofaza qilish organlari amaliyotidan ma'lumki, HSBJKK deyarli barcha jinoyatlar boʻyicha oʻtkaziladi. Biroq, hozircha HSBJKKning sifati huquqni muhofaza qiluvchi organlarning oʻzini qanoatlantirmayapti. Har yili oʻrtacha 43000 dan ortiq HSBJKK o'tkaziladi, jumladan: 2018-yilda – 39029 ta hodisa sodir bo'lgan joylar koʻzdan kechirilgan, ularning 32413 tasida (83,1 %) ashyoviy dalillar aniqlanib olingan, 2019-yilda o'tkazilgan 36045 ta HSBJKKning 30865 tasi (85,6 %), 2020-yilda o'tkazilgan 37965 ta HSBJKKning 31778 tasi (83,7%), 2021-yilda o'tkazilgan HSBJKKning 42942 tasi (82,3 %) va 2022-yilda oʻtkazilgan 51255 ta HSBJKKning 43015 tasida (83,9%) ashyoviy dalillar aniqlanib olingan<sup>4</sup> xolos. Tergov amaliyotining tahlillari natijasida ushbu tergov harakati sub'ektlarining texnik jihatdan yetarli ta'minlanmaganligi, texnik-kriminalistik tayyorgarligining bir muncha past darajasi bilan bogʻliq boʻlgan HSBJKKning samarasizligining bir qator sabablarini ajratishga imkon berdi. Ularga mavjud kriminalistik ro'yxatga olish tizimidan samarasiz foydalanish ham kiradi, chunki bu holat jinoyat ishlari bo'yicha isbotlov (daliliy ahamiyatli) bazani shakllantirish imkoniyatini ham pasayishiga olib keladi. Shu sababli, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2898-son qarorida, Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi tergov departamentining asosiy vazifalaridan biri sifatida "ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etish, har tomonlama, to'la va xolisona tergov qilinishini, surishtiruv va dastlabki tergovni yuritishda qonuniylikka soʻzsiz rioya

<sup>-</sup>

<sup>&</sup>lt;sup>1</sup> https://www.unodc.org/unodc/en/justice-and-prison-reform/cpcj-crimeprevention-home.html

<sup>&</sup>lt;sup>2</sup> https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/crim\_off\_cat/default/table?lang=en

<sup>&</sup>lt;sup>3</sup> http://www.ksgp-cis.ru/about/obzory/sostojanie-prestupnosti-v-2020-godu

<sup>&</sup>lt;sup>4</sup> Oʻzbekiston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika Bosh markazining 2018 – 2022-yillardagi faoliyati yuzasidan statistik hisobotlaridan olingan.

etilishini ta'minlash, shuningdek tergov bo'linmalarining kadrlar tarkibini shakllantirish va xodimlarning malakasini oshirishni tashkil etish" deb belgilangan. Shu kabi holatlar tadqiqot mavzusi ilmiy jihatdan yetarlicha ishlanmaganligidan darak beradi hamda dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi (2016), "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida"gi (2017), "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi (2018), "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" (2020), "2022 — 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning tarraqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi (2022) Farmonlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" ustuvor yoʻnalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dissertatsiya bo'yicha umumiy masalalar respublikamizning koʻplab olimlari tomonidan kriminalistika fani doirasida oʻrganilgan. G'.A. Abdumajidov, R.A. Alimova, orasida A. Norboev, A.S. Zakutskiy, Q.T. Suyarov, T.Ye. Oripov, A.X. Raxmankulov, F.M. Muxitdinov, D.M. Mirazov, U.M. Nosirov, Yu.S. Pulatov, B.B. Xidoyatov, A.K. Zakurlaev, N.D. Bababekov, Sh.T. Djumanov, U.A. Tuxtasheva, G.Z. Tulaganova, T.B. Mamatqulov, K.O. Maxmudov, D.B. Bazarova, I.R. Astanov va boshqalar alohida oʻrin tutadi.

MDHga a'zo mamlakatlarda HSBJKKning nazariy va amaliy muammolari kriminalistika fani doirasida T.V. Averyanova, R.S. Belkin, Yu.G. Koruxov, I.V. Aleksandrov, A.M. Bagmet, O.Yu. Antonov, V.V. Bichkov, A.I. Bastrikin, A.A. Bessonov, L.V. Bertovskiy, L.Ya. Drapkin, V.N. Karagodin, Ya.M. Zlochenko, Ye.P. Ishenko, N.K. Korovin, S.Yu. Skobelin, A.A. Toporkov, A.Yu. Shaposhnikov, N.P. Yablokov² va boshqalar tomonidan oʻrganilgan.

Ushbu mavzuning ayrim jihatlari xorijiy olimlar S. Grafl, N.A. Gross, V.E. Kurapka, H. Malevski, W. Sessions va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan boʻlib, bu asarlardan qiziqarli va foydali ma'lumotlar olingan.

Yuqorida sanab oʻtilgan Respublikamiz va xorijiy olimlarning katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega boʻlgan tadqiqotlari natijalarini baholab, ta'kidlash mumkinki, bu ilmiy ishlar asosan HSBJKKning texnikasi va taktikasiga oid muammolar, alohida turdagi izlarni aniqlash hamda dastlabki tadqiqotlarining metodik ta'minoti masalalariga

\_

<sup>&</sup>lt;sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-2898-son qarori / Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017-y., 17-son, 290-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.05.2019-y., 07/19/4343/3206-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2022-y., 07/22/122/0109-son.

<sup>&</sup>lt;sup>2</sup> Ushbu olimlarning asarlari Dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

bagʻishlangan. Shu sababli, bu ilmiy ishlar ham muammoning barcha dolzarbligini bartaraf eta olmaydi va tergov, ekspertiza va sud amaliyotining hozirgi zamonaviy ehtiyojlarini toʻliq qondira olmaydi.

Ushbu holatlar HSBJKKga oid muammolarni har tomonlama hal qilish hamda ilmiy adabiyotlarni oʻrganish, amaliyot ehtiyojlari va mavjud tajribaning umumlashtirilishi asosida HSBJKKda maxsus bilimlar, texnik-taktik-kriminalistik vosita va usullarni qoʻllash amaliyotini takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini koʻrsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasidagi "Sud-huquq tizimini isloh qilish sharoitida jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari" loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** HSBJKKning kriminalistik ta'minotini nazariy qoidalarini hamda tergov (surishtiruv yoki sud) organlari hodimlari tomonidan HSBJKKni oʻtkazishni takomillashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### Tadqiqotning vazifalari:

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti tushunchasi va tuzilishini mualliflik talqinida ishlab chiqish;

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti sub'ektlari, maqsadlari va vazifalarining tizimini shakllantirish;

HSBJKKning texnik-kriminalistik vositalari hamda kriminalistik texnologiyasining tushunchasi va tizimini mualliflik talqinida yoritish;

HSBJKKning kriminalistik ta'minotini amalga oshirishdagi muammolarni aniqlash va umumlashtirish;

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti vazifalarini hal qilishning tashkiliy-kriminalistik vositalarini oʻrganish;

xorijiy davlatlar jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida voqea joyini koʻzdan kechirishning mazmuni va amaliyotini oʻrganish hamda umumlashtirish natijalariga koʻra ushbu faoliyatga doir qonunchilikdagi boʻshliqlarni bartaraf etish boʻyicha asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari tizimini ishlab chiqish;

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti sifatini nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini oshirish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** jinoyatchi shaxslarning jinoyat sodir etishga va hodisa joyida jinoyat izlarini yashirishga qaratilgan harakatlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, HSBJKKning kriminalistik ta'minotiga doir faoliyati bilan bogʻliq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** HSBJKKni oʻtkazish jarayonida kriminalistik metodlar va vositalarni qoʻllashdagi qonuniyatlar, ushbu tergov harakatlarini oʻtkazish amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlarning ushbu masala boʻyicha tajribasi, kriminalistik adabiyotlardagi konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda amaliy tahlil, analiz va sintez, deduksiya va induksiya, mantiqiylik, tizimlilik, ilmiy-tarixiy, qiyosiy-huquqiy tahlil, sotsiologik soʻrovlar oʻtkazish, Jizzax va Toshkent viloyatlari tergov organlari xodimlari tomonidan yuritilgan jinoyat ishlari materiallarini oʻrganish, statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish kabi tadqiqot usullari qoʻllanilgan.

### Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oʻta ogʻir jinoyatlar boʻyicha HSBJKK hamda koʻrsatuvlarni hodisa sodir boʻlgan joyda tekshirish kabi protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilishi majburiy ekanligi asoslangan;

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (bundan buyon matnda JPK) bir qator moddalariga HSBJKKga mutaxassislarni jalb etish tartibini takomillashtirish, ushbu tergov harakati sub'ektlari doirasiga tergovchi-kriminalistni kiritish, hodisa joyini koʻzdan kechirish sub'ektlari vakolatlarini, dalillar va ularni qayd etishning yordamchi usullarini, ushbu tergov harakati natijalarini qayd etiladigan bayonnomaning tuzilishini takomillashtirish, mutaxassisning mas'uliyati va javobgarligini oshirish bilan bogʻliq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilgan;

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasiga mutaxassisning bila turib yolgʻon yozma fikr berishi yolgʻon guvohlik berish deb e'tirof etilishi lozimligi boʻyicha norma bilan toʻldirish lozimligi asoslangan;

jinoyatlarni ochish va tergov qilishning kriminalistik ta'minoti tizimidan HSBJKKning kriminalistik ta'minoti tizimini ajratishga harakat qilingan hamda kriminalistik ta'minotning tuzilishi aniqlangan, HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari tizimi; HSBJKKning kriminalistik ta'minoti sifatini nazorat qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

tergovchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki sud (bundan buyon matnda - tergovchi) va ekspertning (mutaxassis) HSBJKK boʻyicha faoliyatini, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritilayotgan yangiliklar va oʻzgarishlarni inobatga olgan holdagi ilmiy izohlangan hamda ishlab chiqilgan nazariy va amaliy tavsiyalarni, shuningdek tadqiqot natijalarini HSBJKK jarayonida qoʻllash imkoniyatlari va zarurati asoslangan;

"hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirishning kriminalistik ta'minoti" tushunchasiga mualliflik talqinida ta'rif berilgan, HSBJKKni kriminalistik ta'minotining mazmuni va tuzilishi hamda bunday ta'minotning elementlari ishlab chiqilgan;

xorijiy davlatlarning turlicha tashkiliy-huquqiy tizimi doirasida HSBJKKning mohiyati va amaliyoti yoritilgan;

huquqni muhofaza qilish amaliyotining HSBJKKni kriminalistik ta'minoti boʻyicha kompleks ilmiy-amaliy tavsiyalarga boʻlgan ehtiyojlari aniqlangan hamda bu tergov harakatining kriminalistik ta'minoti samaradorligini oshirish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mutaxassisning bila turib yolgʻon yozma fikr berishi yolgʻon guvohlik berish deb e'tirof etilishi lozimligi asoslangan;

biologik materialni olish bevosita yoki mutaxassisni jalb etgan holda amalga oshirilishi lozimligi asoslangan;

biologik materialni olishda tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va sud Oʻzbekiston Respublikasi JPKning ekspert

tekshiruvi uchun namunalar olish uchun belgilangan qoidalarga amal qilishlari lozimligi asoslangan.

#### Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijasida Oʻzbekiston Respublikasi JPKning bir qator moddalariga HSBJKKga mutaxassislarni jalb etish tartibini takomillashtirish, ushbu tergov harakati sub'ektlari doirasiga tergovchi-kriminalistni kiritish; hodisa sodir boʻlga joyni koʻzdan kechirish sub'ektlari vakolatlarini, dalillar va ularni qayd etishning yordamchi usullarini, ushbu tergov harakatini natijalarini qayd etiladigan bayonnomaning tuzilishini takomillashtirish; mutaxassisning mas'uliyati va javobgarligini oshirish bilan bogʻliq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilgan. Bu esa HSBJKKning kriminalistik ta'minoti toʻliqligi va sifatini hisobga olish, tahlil qilish, baholash va nazorat qilish vazifasini bajarishning maqbul mexanizmi ishlab chiqilishiga xizmat qilgan hamda jinoyatlarni ochish va tergov qilishda sud ekspertizasining kriminalistik imkoniyatlaridan sifatli foydalanish algoritmini aniqlashga imkon bergan;

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasiga mutaxassisning bila turib yolgʻon yozma fikr berishi yolgʻon guvohlik berish deb e'tirof etilishi lozimligi boʻyicha norma kiritilishi taklif qilingan;

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari tizimi; HSBJKKning kriminalistik ta'minoti sifatini nazorat qilish mexanizmlari boʻyicha berilgan takliflar HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

dissertatsiyada jinoyatlarni ochish va tergov qilishning kriminalistik ta'minoti tizimidan HSBJKKning kriminalistik ta'minoti tizimini ajratishga harakat qilingan hamda kriminalistik ta'minotning tuzilishi aniqlangan;

monografik darajada tergovchi va ekspertning (mutaxassis) HSBJKK boʻyicha faoliyatini, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritilayotgan yangiliklar va oʻzgarishlarni inobatga olgan holdagi ilmiy izohlashga harakat qilingan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va amaliy tavsiyalarni, shuningdek tadqiqot natijalarini HSBJKK jarayonida qoʻllash imkoniyatlari va zarurati asoslangan;

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti boʻyicha kriminalistik bilimlarning vujudga kelishi va shakllanishi jarayonlarining davriyligi taklif qilingan;

"hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning kriminalistik ta'minoti" tushunchasi mualliflik talqinida yoritilgan;

HSBJKKni kriminalistik ta'minotining mazmuni va tuzilishi ishlab chiqilgan;

HSBJKKni kriminalistik ta'minotining elementlari mualliflik talqinida taklif qilingan;

tergov organlari xodimlarining HSBJKK faoliyatlarini kriminalistik ta'minotini takomillashtirish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida, xorijiy davlatlarning turlicha tashkiliy-huquqiy tizimi doirasida HSBJKKning mohiyati va amaliyoti yoritilgan;

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini va sifatini baholash mezonlari tizimi taklif qilingan;

huquqni muhofaza qilish amaliyotining HSBJKKni kriminalistik ta'minoti boʻyicha kompleks ilmiy-amaliy tavsiyalarga boʻlgan ehtiyojlari aniqlangan hamda bu tergov harakatining kriminalistik ta'minoti samaradorligini oshirish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini oshirish bo'yicha berilgan takliflar har qanday turdagi hodisa joylarini ko'zdan kechirishning tezkor, samarali va natijador, bu jarayonda olinadigan dalillarning shaffof, raqobatbardosh va haqqoniy bo'lishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qoʻllanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining oʻzaro tahlil qilingani, statistika va amaliyot materiallariga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Dissertatsiyada Oʻzbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tergov, surishtiruv va ekspert-kriminalistika xizmatlari, 143 nafar tergovchi, 54 nafar surishtiruvchi hamda 57 nafar sud ekspertlari (Jizzax va Toshkent viloyatlari) oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrov natijalari, IIV Ekspert-kriminalistik Bosh markazining 2018 — 2022 yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlari, 490 ta jinoyat ishini oʻrganish tahlillari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan.

Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan oʻtkazilib, yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning xulosalari, taklif va tavsiyalaridan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligi jarayonida, huquqni qoʻllash amaliyotida, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining tegishli normalarini talqin etishda, shuningdek, kriminalistika, jinoyat-protsessual huquq, dastlabki tergov, tezkor-qidiruv huquqi fanlarini hamda sud-ekspertlik faoliyatini nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon boʻladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular odil sudlov vazifalarini bajarishda HSBJKKning texnik-kriminalistik vositalari hamda kriminalistik texnologiyalarini joriy qilish; HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari hamda sifatini nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish; HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini oshirish va uni yanada maqbullashtirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan jinoyatlarni ochish va tergov qilish hamda javobgarlik muqarrarligini ta'minlash faoliyatida HSBJKKning kriminalistik ta'minotining samaradorligini yanada oshirishga, bu boradagi amaliyotni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan jinoyat-protsessual va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda, tergov (tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruv yoki sud) organlari xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi**. HSBJKKning kriminalistik ta'minotini takomillashtirish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

1) Hodisa sodir boʻlgan joyini koʻzdan kechirishda zamonaviy texnik-kriminalistik vositalarni samarali qoʻllashga doir takliflardan Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 14-maydagi "Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni

kuchaytirishga qaratilgan oʻzgartishlar va qoʻshimcha kiritish toʻgʻrisida''gi OʻRQ-617-sonli Qonuni 1-moddasining 2-bandiga asosan, Oʻzbekiston Respublikasi JPK 91-moddasining toʻrtinchi qismi "Quyidagi protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilishi shart:

oʻta ogʻir jinoyatlar boʻyicha hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish; tintuv; koʻrsatuvlarni hodisa sodir boʻlgan joyda tekshirish; tergov eksperimenti; shaxsni ushlash; himoyachidan voz kechish; shaxsni ushlash jarayonida oʻtkaziladigan shaxsiy tintuv va olib qoʻyish" degan tahrirda bayon etilishida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalasi qoʻmitasining 2022-yil 27-dekabrdagi 04/2-09/6176-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning joriy qilinishi HSBJKKda aniqlanadigan dalillarni qayd etish usullari va qayd etishning yordamchi usullarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Jinoyatlarni tergov qilish va ochishda biologik materiallar va namunalar olishni takomillashtirishga oid takliflardan:

- 2) Oʻzbekiston Respublikasining "Genom boʻyicha davlat roʻyxatiga olish toʻgʻrisida"gi Qonuni 10-moddasi birinchi qismi "biologik materialni olishni (bevosita yoki mutaxassisni jalb etgan holda) amalga oshirish" degan 1-xatboshi bilan hamda "genomga oid axborotni olish uchun biologik materialni sud-ekspertiza muassasalariga yuborish" degan 2-xatboshi bilan toʻldirishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasining 2023-yil 5-yanvardagi 2-sonli dalolatnomasi). Bu takliflarning joriy qilinishi jinoyatlarni ochish va tergov qilishda biologik izlar va materiallardan foydalanish imkoniyalarini oshirishga xizmat qilgan;
- 3) Oʻzbekiston Respublikasining "Genom boʻyicha davlat roʻyxatiga olish toʻgʻrisida"gi OʻRQ-649-son Qonuni 10-moddasi ikkinchi qismini "biologik materialni olishda tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va sud Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish uchun belgilangan talablariga rioya etilishi shart" degan soʻzlar bilan toʻldirishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasining 2023-yil 5-yanvardagi 2-sonli dalolatnomasi). Bu takliflarning joriy qilinishi jinoyatlarni ochish va tergov qilishda biologik izlar va materiallardan foydalanish imkoniyalarini oshirishga, genom boʻyicha davlat roʻyxatiga olishda tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va sudlarning vakolatlarini aniq belgilashga va ularning mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qilgan;
- 4) Tadqiqot natijalari asosida tayyorlangan "Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish metodikasi" nomli amaliy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o'rinbosari Tergov departamenti boshlig'інинг yozma ko'rsatmasiga asosan, IIV Tergov departamenti hamda quyi tizimlar tergovchi va surishtiruvchilari xizmat faoliyatida foydalanib kelinmoqda (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2022-yil 11-apreldagi 18/3200-son dalolatnomasi). Ushbu amaliy qo'llanmanining joriy qilinishi ichki ishlar organlari quyi tizimlari tergovchi va surishtiruvchilarining hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning tehnik-kriminalistik ta'minoti samaradorligini baholash yo'nalishini yanada takomillashtirilishiga xizmat qilgan;
- 5) Dissertatsiya mavzusi boʻyicha ishlab chiqilgan "Hodisa joyini koʻzdan kechirish" deb nomlangan oʻquv qoʻllanma tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki

tergovni amalga oshiruvchi organlar va sudlar xodimlarini oʻqitish va ularning malakasini oshirishga qoʻllanilmoqda (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta-maxsus ta'lim vazirining 2022-yil 29-avgustdagi 302-son buyrugʻi, 302-1069-son nashr guvohnomasi). Ushbu oʻquv qoʻllanma tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar va sudlar xodimlari tomonidan hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirishning texnik-kriminalistik ta'minotini chuqur oʻranish boʻyicha uslubiy tavsiya boʻlib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi**. Mazkur tadqiqotning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, ilmiy jurnallarda 18 ta ilmiy maqola (ulardan 5 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 148 betni tashkil etgan.

#### DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekt hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning natijalarini amaliyotda joriy etilish holati, shuningdek nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni kriminalistik ta'minotining nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida HSBJKKni kriminalistik ta'minotining tushunchasi va tuzilishi, HSBJKKning kriminalistik ta'minoti maqsadlari va vazifalarining tizimi hamda HSBJKKning texnik-kriminalistik vositalari hamda kriminalistik texnologiyasining tushunchasi va tizimi o'rganilgan.

Dissertant tomonidan, tadqiqot mavzusi boʻyicha olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilish asosida, "koʻzdan kechirish" va "hodisa joyi" atamalarining ta'riflariga nisbatan ilmiy yondashuvlarni tahlillari, HSBJKKning vazifalarini aniqlash, kriminalist olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirish natijasida, hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilgan hamda HSBJKKning kriminalistik ta'minoti tushunchasiga ta'rif berish uchun dastlabki holatlar sifatida qabul qilinishi mumkin boʻlgan shartlar aniqlangan.

Dissertant kriminalistika fani tizimini, shuningdek HSBJKKni kriminalistik ta'minotining ta'rifi va mazmuniga oid mavjud qarashlar va shartlarini hisobga olgan holda, hodisa joyini koʻzdan kechirishni kriminalistik ta'minoti tergov harakati doirasi bilan cheklangan dinamik tashkiliy-funksional tizim deb hisoblaydi va uni oʻzaro bogʻliq boʻlgan ikkita: nazariy va amaliy bloklar koʻrinishida ifodalanishi mumkin deb xulosa qilib, har bir tarkibiy qismning tuzilishini ishlab chiqqan.

Shuningdek, "Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning kriminalistik

ta'minoti" tushunchasiga mualliflik ta'rifi asoslantirilgan holda taklif qilingan. HSBJKKni kriminalistik ta'minot tizimining maqsadlariga: jinoyatni aniqlash va tergov qilishga qaratilgan *umumiy (yakuniy) maqsad* hamda tizim faoliyatining tashkiliy, texnologik va baholash-nazorat qilish qismlarining maqsadlari bilan bogʻliq boʻlgan *xususiy (oraliq) maqsadlar* kirishi asoslangan. Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun tashkiliy vazifalar, texnologik vazifalar va baholash-nazorat vazifalari bajarilishi lozimligi asoslangan tarzda taklif qilingan.

Dissertant, hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon loyihasida Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi va boshqa organlarda surishtiruvchi va tergovchi lavozimiga kadrlar zaxirasini yaratish doirasida "tergovchi-yordamchi" lavozimini joriy etish va ushbu lavozimga ta'lim muassasini tugatgach mazkur organlarga ilk bor xizmatga qabul qilingan xodimlar tayinlanishi hamda mazkur lavozimda bir yil davomida xizmat olib borishi koʻzda tutilganligi, biroq, amaldagi JPKda "tergovchi"ga aniq ta'rif berilmaganligi va natijada yuqorida ta'kidlanayotgan "tergovchi-yordamchi"ning tushunchasi ham biroz noaniq boʻlib qolganligini asoslab, "tergovchi"ga aniq ta'rif berish maqsadida, amaldagi JPKning 35-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilishni taklif qilgan:

"Tergovchi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan vakolatlar doirasida tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni amalga oshiruvchi mansabdor shaxsdir.

Jinoyat ishi boʻyicha dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmatining tergovchilari olib boradilar".

Dissertant yuqoridagi 35-moddaga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalardan kelib chiqib, amaldagi JPKning 36-moddasi birinchi qismiga (tergovchining vakolatlari) "tergovga qadar tekshiruvni olib borish"ni ham kiritish lozimligini asoslagan.

Amaliyotni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi HSBJKKda texnik-kriminalistik vositalar va taktik-kriminalistik usullarni qoʻllash boʻyicha zarur bilim hamda koʻnikmalarga ega emaslar. Jumladan, Jizzax va Toshkent viloyatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlarida faoliyat koʻrsatayotgan tergov, tergovga qadar tekshiruvni olib boruvchi organlar va prokuratura xodimlari (jami – 254 nafar) oʻrtasida oʻtkazilgan anketa soʻrovlarida, "Sizga qoʻshimcha kriminalistik tayyorgarlik kerakmi" degan savolga respondentlarning 67,7 foizi "ha" deb, 29,3 foizi "yoʻq" va 3,0 foizi "javob berishga qiynalaman" deb; "Ayrim turdagi hodisa joylarini koʻzdan kechirishda, tergovchi jinoyatning moddiy izlarini toʻplash uchun kriminalistik bilimlarni qoʻllashga qodir, deb hisoblaysizmi" degan savolga respondentlarning 52,5 foizi "yoʻq" deb javob bergan, ularning 38,4 foizi "ha" va 9,1 foizi javob berishga qiynalgan.

Oʻtkazilgan soʻrovlarda, ularga berilgan "Hodisa joyini koʻzdan kechirishda, barcha zarur texnik-kriminalistik vositalar har doim qoʻllaniladimi?" degan savolga respondentlarning 78,6 foizi "yoʻq" deb javob bergan, ularning 18,4 foizigina "ha" deb javob bergan va 3 foizi javob berishga qiynalgan. Shuningdek, "Sizning fikringizcha, texnik-kriminalistik hamda taktik-kriminalistik vositalar va texnologiyalarni qoʻllash natijadorligini baholash va nazorat qilish hodisa joyini koʻzdan kechirishning kriminalistik ta'minoti samaradorligini oshirishga yordam beradimi?" mazmunidagi savolga respondentlarning 75 foizi "ha" deb, 14,1 foizi "yoʻq" va 10,9 foizi javob berishga qiynalganlar. Hodisa joyini koʻzdan kechirishning kriminalistik ta'minoti sifatini nazorat

qilish kerakligi haqidagi savolga **79,8 foiz** respondentlar "ha", **14,1 foiz**i "yoʻq" va **9,6 foiz**i javob berishga qiynalganlar.

Dissertant tomonidan amaliy faoliyatning tahlillari natijalariga asoslanib, nafaqat HSBJKK, balki boshqa turdagi tergov harakatlarining texnik-kriminalistik ta'minotini amalga oshirishga mas'ul mansabdor shaxsga ehtiyoj mavjud deb xulosa qilingan hamda bunday muammolarni bartaraf etish maqsadida, amaldagi JPKga "Tergovchi-kriminalist" degan yangi 36¹-moddani kiritish taklif qilingan.

Dissertant kriminalist-olimlar, jumladan: F. Abdumajidov, S.A. Yalishev, Ye. Bogdanov, G.I. Gramovich, I.A. Anishenko, G.N. Muxin, Polshalik kriminalist R.A. Stefanskiylarning texnik-kriminalistik vositalarni tizimlashtirishga doir fikrlarini tahlil qilib, HSBJKKda foydalaniladigan texnik-kriminalistik vositalarni ikkita darajada tizimlashtirish maqsadga muvofiqligini asoslagan, bunda birinchi darajadagi tizimlashtirish uchun asos – funksional yoʻnalish boʻyicha, ikkinchi darajadagi tizimlashtirish uchun asos – aniqlash uchun texnik-kriminalistik vositalar qoʻllaniladigan ob'ektlar boʻyicha. Shuningdek, texnik-kriminalistik vositalarni oltita guruhini ajratish taklif qilingan.

Dissertatsiya mavzusi boʻyicha oʻtkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida "metodika", "texnika", "usul" va "uslub" kabi atamalarning mohiyatini oʻrganish, shuningdek, "texnologiya" atamasining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, yuqoridagi atamlar oʻrniga zamonaviy "texnologiya" atamasidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotchi T.V. Averyanova, R.S. Belkin, Yu.G. Koruxov va E.R. Rossinskayalarning "Kriminalistika faniga tabiiy va texnika fanlari yutuqlarining integratsiyasi, texnik vositalarning rivojlanishi va ularni qoʻllash metodikalarini takomillashishi — deyarli har doim murakkab texnologik operatsiyalar bilan kuzatiladi va shu sababdan, hozirgi vaqtda faqatgina krimnalistik texnika emas, balki kriminalistik texnologiya haqida fikr yuritish lozim" degan ilmiy qarashlariga, "HSBJKKning texnik-kriminalistik vositalari", "Taktik usul" kabi atamalarning mohiyatini oʻrganish, kriminalist olimlarning ilmiy qarashlarining tahlillariga asoslanib, hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirishning kriminalistik texnologiyalari tushunchasining ta'rifini taklif qilgan.

Shu bilan birga, HSBJKKning kriminalistik texnologiyalarini HSBJKKda ikki darajada qoʻllaniladigan texnik-kriminalistik vositalar tizimi kabi, ya'ni funksional yoʻnalishi (birinchi daraja) boʻyicha hamda aniqlanishida mazkur texnik-kriminalistik vostalar qoʻllaniladigan ob'ektlar (ikkinchi daraja) boʻyicha tizimlashtirish lozimligi asoslangan.

Dissertatsiyaning "Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni kriminalistik ta'minotining amaliy omillari" deb nomlangan ikkinchi bobida HSBJKKning kriminalistik ta'minotini amalga oshirishdagi muammolar, HSBJKKning kriminalistik ta'minoti vazifalarini hal qilishning tashkiliy-kriminalistik vositalari hamda xorijiy davlatlar jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida HSBJKKning mazmuni va amaliyoti o'rganilgan.

Tadqiqotchi mavzu boʻyicha olimlarning ilmiy qarashlari, jinoyat ishlari materiallari va anketa soʻrovlaridan aniqlangan ma'lumotlarni umumlashtirish natijalariga asoslanib, HSBJKKning samaradorligiga salbiy ta'sir qiluvchi qonuniyatlar hamda HSBJKKda kriminalistik vositalarni qoʻllashdagi bartaraf qilinishi lozim boʻlgan muammolami aniqlagan. Shuningdek, HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini oshirish

uchun asoslangan takliflar ishlab chiqqan.

Dissertant, mutaxassis-kriminalistni HSBJKKga jalb etishning maqsadga muvofiqligini belgilovchi sabablar, koʻrsatkichlar va vaziyatlarni oʻrganib, HSBJKK tergov harakatining uchta darajasini tavsiya etgan:

- HSBJKKning oddiy turi;
- HSBJKKning oʻrtacha murakkab turi;
- HSBJKKning murakkab turi.

Dissertant, kriminalist-olimlarning (G.I. Gramovich, I.T. Lusyuk, V.A. Snetkov, A.N. Moskalenko, B.Yu. Txakumachev va boshqalar) fikrlarini oʻrganish, hodisa joyini koʻzdan kechirishda maxsus bilimlardan foydalanish amaliyotini umumlashtirish hamda Litva Respublikasi tajribasini hisobga olgan holda, HSBJKK tergov harakatiga mutaxassisni jalb qilish amaliyotini takomillashtirish boʻyicha mualliflik takliflari ishlab chiqqan.

Yuqoridagilar asosida, tergovchi tomonidan hodisa joyini oddiy koʻzdan kechirish, oʻrtacha murakkab turi va murakkab koʻzdan kechirishga mutaxassis-kriminalistni jalb qilishning maqsadga muvofiqligi toʻgʻrisidagi qaror qabul qilishga yordam beradigan omillar ishlab chiqilgan.

Dissertant tomonidan Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar, Roman-german huquqi va kriminalistika tizimi davlatlari, Anglo-sakson huquqi va kriminalistika tizimi davlatlari, huquq va kriminalistikaning teologik shariat tizimiga kiruvchi davlatlar tajribalarini oʻrganish natijalari umumlashtirilib, quyidagi xulosalar berilgan:

Germaniya, Fransiya va AQSh jinoyat-protsessual qonunchiligida "jinoyat joyi" va "hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish" atamalariga yondashuvlar farqlanmaydi. Ko'zdan kechirish ob'ektlari ro'yxatida – faqat jinoyat amalga oshirilgan joy mavjud. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual huquqida "hodisa joyi" atamasi nazarda tutilganligi, ushbu atamaning mazmuni davlatimiz qonunchiligida aniqlab qo'yilganligidan dalolat beradi;

xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini oʻrganish va inobatga olish — hodisa joyini koʻzdan kechirishning jahon tajribasi va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarining uygʻunligiga asoslangan Oʻzbek modelini ishlab chiqishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning "Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni kriminalistik ta'minotining baholash-nazorat omillari va uning samaradorligini yuksaltirish yo'llari" deb nomlangan uchinchi bobida HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari tizimi, kriminalistik ta'minot sifatini nazorat qilish mexanizmlari hamda HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy tadqiq qilingan.

Ushbu bobda dissertant tomonidan U.M. Nosirov, V.Ya. Karlov, G.I. Gramovich, V.A. Volinskiy, A.N. Moskalenko va boshqa olimlarning texnik-kriminalistik vositalar va metodlardan foydalanish samaradorligiga oid ilmiy fikrlarini tahlil qilib, HSBJKKni kriminalistik ta'minotining samaradorligi va natijaviyligi tushunchalariga ta'rif berilgan hamda HSBJKKning kriminalistik ta'minoti samaradorligini baholash mezonlari tizimi ikki xil – miqdoriy va sifat koʻrsatkichlaridan iborat deb ta'kidlab, ushbu miqdoriy va sifat koʻrsatkichlar ishlab chiqilgan.

Dissertant, HSBJKKning kriminalistik ta'minoti boʻyicha ma'lumotlarning mavjud ulkan hajmi – ularni qayta ishlash, ular orasidan kriminalistik ahamiyatga ega boʻlgan

ma'lumotlarni ajratib oʻrganishni taqozo qiladi deydi va texnik-kriminalistik va taktik-kriminalistik texnologiyalardan foydalanishning toʻliqligi, sifati, samaradorligi va natijaviyligini baholash; aniqlab olingan jinoyat izlarining tadqiqotlarini oʻz vaqtidaligi va toʻliqligini nazorat qilish, texnik-kriminalistik va taktik-kriminalistik texnologiyalardan foydalanishni amalga oshirishga amaliy yordam bera oluvchi yagona respublika "Avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimi — AAQT"ni ishlab chiqilishini taklif qilgan.

Ilmiy ishda bir qator kriminalist-olimlar, jumladan: L.Ye. Arosker, R.S. Belkin, G.L. Granovskiy, G.G. Zuykov, Z.I. Kirsanov, V.N. Kudryavsev, A.I. Vinberg, I.D. Kucherov. I.M. Luzgin, R.M. Lansman, V.S. Mitrichev, N.S. Polevov. V.A. Poshkyavichus, V.A. Snetkov, A.R. Shlyaxov, L.G. Edjubov, A.A. Eysman va boshqalarning kriminalistik vazifalarni matematik modellashtirish va avtomatlashtirish bilan kuzatiladigan u yoki bu turdagi muammolarga bagʻishlangan ilmiy ishlarining tahlillariga asoslanib, zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlarining imkoniyatlari oʻrganilgan hamda HSBJKKning samaradorligini oshirish boʻyicha metodik-kriminalistik vosita bo'la oladigan, Respublika miqyosidagi yagona "Milliy AAQT"ni shakllantirish taklif qilingan.

Bu kabi dasturiy mahsulotning hodisa joyini koʻzdan kechirishni kriminalistik ta'minotining sifatini nazorat qilish va baholash boʻyicha tezkor, mobil va samarali amalga oshirish borasidagi talablar hamda ushbu jarayonlarining sifatini nazorat qilish boʻyicha zamonaviy AAQTning funksiyalari taklif qilingan.

Dissertant tomonidan kechiktirib boʻlmas tergov harakatining tushunchasida bu harakatning sub'ektlari, tezkor oʻtkazilishi va oʻtkazish davri (jinoyat ishi qoʻzgʻatilishidan oldin yoki keyin) toʻgʻrisidagi jihatlar boʻlishi lozim deb xulosa qilgan.

Dissertant tomonidan xorij davlatlar Jinoyat-protsesual kodekslari (masalan Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi), huquqiy adabiyotlarni oʻrganish hamda tergovchi, surishtiruvchi va sud ekspertlari oʻrtasida oʻtkazilgan anketa soʻrovlari natijalariga asoslanib, mutaxassisning uzrsiz sabablarga koʻra kelmaganligi; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan qonunda belgilangan tartibda ogohlantirilgan hollarda jinoyat ishi boʻyicha unga ma'lum boʻlgan holatlarni oshkor qilganligi; uzrsiz sabablarga koʻra yozma fikrini berishni rad etganligi yoki bu ishdan boʻyin tovlaganligi hamda bila turib yolgʻon yozma fikr berganligi uchun jinoiy javobgarlikni belgilash taklifi ishlab chiqilgan.

Bunday tartib mutaxassisning oʻz vazifalariga vijdonan yondashishi, hodisa joyini koʻzdan kechirishning kriminalistik ta'minotining va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlarni tergov qilishda isbotlov ahamiyatiga ega ma'lumotlar bilan ta'minlash faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu bobda HSBJKKni kriminalistik ta'minotining amaliy jihatlarini tartibga solishning samarali vositasi bo'lib, bu faoliyatning sifatini nazorat qilish mexanizmi hisoblanishi asoslangan.

Dissertant, HSBJKKda toʻplanayotgan vizual axborotning toʻliqligini salmoqli kengaytirilishi, koʻzdan kechirish tezkorligini oshirish, aniqlash qiyin yoki mutaxassis uchun xavf tugʻdiradigan joylar tasvirini olishda xodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirishga istiqbolli yondashuvlardan biri tasvirga oluvchi turli qurilmalar, jumladan, uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanishni taklif qilgan.

Tadqiqotchi, hodisa sodir boʻlgan joyni virtual koʻzdan kechirish boʻyicha

texnik-texnologik ishlanmalar hodisa joyini koʻzdan kechirishning kriminalistik ta'minotiga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni birlashtiruvchi tizimli tabiatga ega universal vosita hisoblanadi deb ta'kidlab, hodisa sodir bo'lgan joyni sifatli ko'zdan kechirilishini o'tkazish uchun ko'zdan kechirish chegaralarini aniq belgilab olish, alohida e'tibor berish kerak bo'lgan joylar va ob'ektlarni aniqlash lozimligini asoslab bergan. Biroq, muayyan tergovchi yoki mutaxassisning tajribasi har doim ham bunga imkon bermasligi sababli, koʻzdan kechirishda kerakli mutaxassisning ishtirokini turli sabablarga ko'ra har doim ham ta'minlashning imkoni yo'qligi asoslangan. Bu kabi muammolarni bartaraf qilish uchun dissertant tomonidan hodisa sodir bo'lgan joyni noan'anaviy ko'zdan kechirish, aynan interfaol, virtual shaxslar ishtirokidagi, ularning real vaqt rejimida tergov harakatlarida ishtirok etishini ta'minlovchi muqobilini (masalan, **IIVning** videokonferensaloqa servisini) tanlash maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Muallif tomonidan zamonaviy texnologiyalar va raqamli texnik vositalaridan foydalanib, xodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirishda uning taktikasiga qoʻshimchalar yoki oʻzgartirishlar kiritish, shuningdek, mazkur tergov harakatlarida yangi ishtirokchilar zaruriyati paydo boʻlishi mumkinligi ta'kidlangan hamda hodisa sodir boʻlgan joyni interfaol koʻzdan kechirish taktikasi bilan bogʻliq masalalar qonunan mustahkamlanmagan va faqat tajribali shaxslar bahslarida foydalanilishi mumkin deb xulosa qilingan.

#### **XULOSA**

HSBJKKning kriminalistik ta'minotini takomillashtirish masalalarini tadqiq etish natijalari asosida quyidagi nazariy xulosalarga kelindi hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

## I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

- 1. Tadqiqot mavzusi boʻyicha olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilish asosida, "koʻzdan kechirish" va "hodisa joyi" atamalarining ta'riflariga nisbatan ilmiy yondashuvlarni tahlillari, HSBJKKning vazifalarini aniqlash, kriminalist olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirish natijasida, "hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan hamda "hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirishning kriminalistik ta'minoti" tushunchasiga ta'rif berish uchun dastlabki holatlar sifatida qabul qilinishi mumkin boʻlgan shartlar aniqlangan.
- 2. Kriminalistika fani tizimini, shuningdek HSBJKKni kriminalistik ta'minotini ta'rifini va mazmuniga oid ilgari mavjud bo'lgan qarashlar va shartlarini hisobga olgan holda, hodisa joyini ko'zdan kechirishni kriminalistik ta'minoti bu tergov harakati doirasi bilan cheklangan dinamik tashkiliy-funksional tizim hamda o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita blok: nazariy va amaliy bloklar ko'rinishida ifodalanishi mumkin deb xulosa qilingan hamda har bir tarkibiy qismning tuzilishi ishlab chiqilgan.
- 3. "HSBJKKning kriminalistik ta'minoti" tushunchasiga mualliflik ta'rifi asoslantirilgan holda taklif qilingan. HSBJKKni kriminalistik ta'minot tizimining maqsadlariga: jinoyatni aniqlash va tergov qilishga qaratilgan *umumiy (yakuniy) maqsad* hamda tizim faoliyatining tashkiliy, texnologik va baholash-nazorat qilish qismlarining maqsadlari bilan bogʻliq boʻlgan *xususiy (oraliq) maqsadlar* kirishi asoslangan. Ularga erishish uchun tashkiliy vazifalar; texnologik vazifalar va baholash-nazorat vazifalar

bajarilishi lozimligi asoslangan tarzda taklif qilingan.

- 4. Texnik-kriminalistik vositalarni kompleks qoʻllash imkoniyatlarini yetarli darajada tushunish uchun, hodisa sodir boʻlgan joyni tekshirishda foydalaniladigan texnik-kriminalistik vositalarni ikkita darajada tizimlashtirish maqsadga muvofiqligi asoslangan, bunda birinchi darajadagi tizimlashtirish uchun asos funksional yoʻnalish, ikkinchi darajadagi tizimlashtirish uchun asosi aniqlash uchun texnik-kriminalistik vositalar qoʻllaniladigan ob'ektlar. HSBJKKning kriminalistik texnologiyalarini ham yuqoridagi kabi ikki darajada qoʻllaniladigan texnik-kriminalistik vositalar turlari boʻyicha tizimlashtirish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.
